

BARCHASI SHU YERDAN VA SHU ONDAN BOSHLANADI

TA'LIM ZIYOSI

UNIVERSITET
GAZETASI

7-son

Gazeta ichida gazeta

GAZETANING USHBU SONI O'QITUVCHI VA MURABBIYLAR KUNIGA BAG'ISHLANADI

TABRIK

Hurmatli hamkasblar, professor-o'qituvchilar va universitetimiz talabalari!

Sizlarni kasbiy bayram – "O'qituvchi va murabbiylar kuni" munosabati bilan chin qalbidan tabriklayman va eng samimiy tilaklarimni yo'llayman!

O'qituvchilik – bu nafaqat kasb, balki o'quvchilarini o'z farzandidek ardoqlab, ular uchun ko'z nuri, qalb qo'ri, butun borlig'ini baxsh etadigan fidoyilar missiyasi ham. Bizning ustozlarimiz esa bu ma'noda ikki karra o'qituvchilardir. Chunki bizning oliy ta'lim muassasamizda kelajak pedagoglarining kasbiy shakllanishi amalga oshadi.

O'qituvchining vazifasi – faqat o'zi yetuk mutaxassis bo'lish emas, balki bu bilim va mahoratni o'z talabalariga ham samarali yetkaza olishdir.

Hurmatli hamkasblar, sizning bilimingiz, donoligingiz va tajribangiz o'z sohasining haqiqiy professionalarini

tarbiyalashga xizmat qilmoqda. Mashaqqatli va fidokorona mehnatingiz uchun samimiy minnatdorlik bildiraman hamda sizlarga salomatlik, muvaffaqiyat, dars jarayonlarida ilm olish ishtiyoqida ko'zlari yonib turadigan talabalar nigohi, tinimsiz ilhom va tuganmas quvvat tilayman!

Shu o'rinda, aziz talabalarimizga ham alohida murojaat qilmoqchiman.

O'qituvchi, tarbiyachi, ustoz bo'lish hammaning ham qo'lidan kelmaydi. Oldingizda murakkab, biroq ishonch bilan ayta olamanki, juda qiziqarli va mazmunli faoliyat turibdi. Siz bilim, ko'nikma va malaka bo'yicha ulkan tajriba to'plab, haqiqiy ustozga aylanishingiz kerak bo'ladi.

Sizlarga bu yo'lda chuqur bilim, barqaror salomatlik, yangi kashfiyotlar, doimiy ravishda o'z ustida ishlash va qo'yilgan maqsadlarga erishishda omad hamroh bo'lishini tilayman!

Hurmat bilan,

G'afurjon MUHAMEDOV, universitet rektori

USTOZLAR XIZMATI –
BUYUK SHARAF

Inson uchun yaxshilik qilish eng ezgu amallardan biridir. "Yaxshidan bog' qolur, yomondan dog' qolur" degan xalq naqli ham shuni eslatadi: yaxshi insonlardan faqat yaxshi xotira, yaxshi ishlar qoladi.

Davlatimiz rahbarining ta'lim sohasiga qaratayotgan e'tibori tufayli bugun har bir o'quv maskani nafaqat bilim beradigan joy, balki yurtimizning eng nurlu manzillaridan biriga aylanmoqda.

Zamonaviy binolar, keng kutubxonalar, yashil hududlar, san'at va sport maskanlari – bularning barchasi yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

Eng quvonarlisi, mana shunday xayrli ishlarga kamarbasta bo'layotgan, tashabbuskor va fidoyi rahbarlar ham bor. Ularning sa'y-harakati natijasida dargohlarimiz nafaqat ilm, balki ma'naviyat va

obodonlik maskaniga aylanib bormoqda.

Qadrdon obunachilar yaxshi eslashsa kerak, Chirchiq davlat pedagogika universitetida dastlab Tarix va tillar fakulteti nomi bilan tashkil etilgan fakultetga Chirchiq shahri Lomonosov (hozirgi Fazilat) ko'chasida joylashgan Akademik litsey binosi ajratib berilgan edi. O'sha kezlarda bu hudud hozirgidek ko'rkam emas edi: toshloq yerlari, qadimdan qolgan eskirgan sport maydoni bor edi. Atrofga boqishda ham bir oz g'amginlik sezilardi, hudud mehrlu qo'lga, bunyodkor nigohga zor edi.

Aniq esimda: ilk bor "talaba" unvonini olib, oliygoh dargohiga qadam qo'ygan yillarimda men

insonning chinakam bunyodkorlik fazilatlariga yaqqol guvoh bo'lgan edim. O'sha kezlarda ko'z o'ngimda oddiy tashlandiq joyning asta-sekin ko'rkamlashib, yashil makonga aylanish jarayoni kechardi. Bu nafaqat obodonchilik, balki qalblarda ezgu niyat va umid uyg'otuvchi manzara edi.

Mazkur bunyodkorlik ishlariga universitet rektori, professor G'.Muxamedovning oqilona ko'rsatmalari asos bo'ldi, ularni amalda hayotga tatbiq etishda esa fakultet decani, professor R.Ikramov tashabbuskorlik va fidoyilik bilan bosh-qosh bo'ldilar.

Ravshan Aktamovich nafaqat bilimli rahbar, balki tabiatsevar inson sifatida ham biz kabi shogirdlari uchun ibrat bo'ldi.

(Davomi 4 - sahifada)

Bir guruh yoshlar o'qishni davom ettirish uchun Belarus Respublikasiga jo'nadik. Minsk. Bizga qo'shma ta'lim dasturlarini muvofiqlashtirish bo'limi rahbari Ergash Tangirov safardosh bo'ldilar. Yaxshi inson yo'lda bilinadi, deyishlari bejizmas. Yo'l davomida ko'p qiziq taassurotlarini aytib berdilar. Ustoz –



HAVO KEMASIDA TO'RT SOAT

ajoyib inson. Kelajagimiz, universitet va ta'limimizning xalqaro miqyosdagi o'rni borasida uzoq suhbatlashdik.

Ustozimizning talabalar bilimi, dunyoqarashi, odobi xorij davlatlarida universitet sha'ni, yuzi ekani haqidagi fikrlarini hozirgacha jilmayib eslaymiz. Talabalar, negadir qadriyat va ma'naviyat haqida ko'p gapirgan insonni suyishmaydi. Lekin Ergash aka bu haqda gapirganida haqli ekanligini barchamiz bilamiz. U juda bilimli: musiqa va adabiyotni yaxshi tushunadi.

Har bir xalqning o'ziga xos urf-odat, marosim, qo'shiq va laparlari, oqil va dono kishilari, keksalari tomonidan yaratilgan tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan ertak, afsona va rivoyatlari ham bo'ladi. Huddi shunday biz ham safar davomida belarus xalqi haqida juda ko'p antiqa ma'lumotlarni eshitib, zavqlandik.

O'sha damlarda, ustoz yonida bizning bilimimiz sustroq ekanini his qildik. Shuning uchun Mogilevda bo'lganimizda, imkon qadar ko'proq narsani ko'rishga, eslab qolishga va o'zlashtirishga harakat qildik.

Mogilevning tor ko'chalari, mashhur Dnepr daryosi, o'rmonlari, hatto o'ziga xos ifori borligini his qildik.

Ilm yo'lidagi sayohat – murakkab. Uni yengil va qulaylashtirgan, xalqaro darajada bilim olishimizni istagan inson – Ergash Haqqulovich, bayramingiz muborak bo'lsin!

Talabalarimiz nomidan,

Malika KELIMBETOVA,
4-bosqich talabasi

UBAYDA FAYZIYEVA: «BOLALAR DUNYODAGI ENG YAXSHI NE'MATLARGA MUNOSIB...»

Pedagogika fanlari nomzodi, Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti Ubayda Fayziyevaning ta'kidlashicha, bolalarga eng yaxshi sharoit va imkoniyatlarni yaratish – kattalarning burchi. Uzoq yillik pedagogik tajribaga ega mutaxassis sifatida u o'z faoliyatini imkoniyati cheklangan bolalarni ta'lim va tarbiya qilishga bag'ishlab kelmoqda. Uning fikricha, ushbu bolalar ham tengdoshlari kabi sifatli ta'lim olishga, kasb egallashga va to'liq hayot kechirishga haqlidirlar.

Shuningdek, ular uchun jamiyatda munosib shart-sharoitlar yaratilishi ham kerak.

– Siz katta tajribaga ega pedagogsiz. Bunga siz shunchaki kasb deb qaraysizmi yoki orzular ro'yobi?

– Balki bu taqdir. Men sakkiz bolali oilada o'sdim, eng kattasi menman. Bunday katta oilalarda, albatta, katta farzandlar ota-onalariga yordamchi bo'lishadi. Ota-onam ishlardi. Men kichik ukalarimga nafaqat tarbiyachi, balki birinchi o'qituvchi ham bo'lib qolardim. Otam ajoyib odam edi - yumshoq tabiatli, g'amxo'r. Onamni juda hurmat qilar edi.

Eslayman, otam ko'p marta kelib mendan so'rardi: «Kechki ovqatga nima bor? Onang ishdan charchagan holda keladi...» Men

ham onamni doim avaylardim, uyni sarishta, ukalarimni ozoda yurishlariga e'tibor qaratardim. Shunda onamiz kechqurun dam olish va biz bilan o'tirib so'zlashish imkoniga ega bo'lar edilar. Otam ham bolalar bilan vaqt o'tkazishni yaxshi ko'rardi. U bizning ta'lim olishimizni juda xohlar, o'qimishli bo'lishimizni ko'p orzu qilar edi.

– Sizni o'qituvchilik kasbiga qiziqishingiz bolalikdan boshlangan ekan...

– Yo'q, o'sha paytda men ko'proq huquqshunos bo'lishni orzu qilardim. Maktabdagi o'qituvchilar menda huquqshunoslikka qobiliyat bor, deb hisoblashar, yuridik fakultetga kirishni maslahat berishardi. Men avval Toshkent pedagogika kollejiga o'qishga kirishga qaror

qildim – o'zbek tilini mukammal o'rganish uchun o'zbek guruhda o'qishni xohlardim. Qishlog'imizda ko'proq rus tilida gapirishardi, mening ona tilim esa tojik tili edi. Men kollejni tugatgach, o'zbek va rus tillarini mukammal bilgan holda, huquqshunos bo'lish uchun o'qishimni davom ettiraman, deb o'ylardim.

– Sizni pedagogika institutiga qabul qilishganmi?

– Kollejni tugatganimdan so'ng, yo'nalish bo'yicha men kar bolalar internat maktabiga ishga kirdim. Hatto boshlang'ich sinf o'qituvchisi diplomim borligi uchun, avval tarbiyachi bo'lib ishladim. Chunki bunday bolalarga ta'lim berishdan oldin, o'zim ko'p narsalarni o'rganishim kerak edi. Tajribali pedagoglarda o'qidim, darslarida qatnashdim, maxsus adabiyotlarni tahrir qildim... O'sha yillarda internatda o'zbek sinflari ochildi va shulardan birida men o'qituvchi bo'lib ish boshladim. Albatta, bu oson bo'lmadi, ammo o'sha paytlarda boshqa kasbda o'zimni tasavvur ham qila olmadim.

Men bolalarga kamida biror narsa bilan yordam berishni, ularga o'qish, yozish va gapirishni o'rgatishni juda xohlardim. Bu uchun maxsus ta'lim olish kerakligini tushunib, pedagogika institutiga kirishga qaror qildim. Shu tariqa, men bir institutda ikki marta o'qidim. Avvalo, logopediya bo'limida, keyin yillar o'tib, surdopedagogika bo'limida.

– Bilishimcha, Moskvada ham ta'lim olgansiz?

– Moskvadagi qayta tayyorlash kurslari men uchun katta maktab bo'ldi, u yerda men bolalarimizning so'zlashishini ta'minlash uchun nima kerakligini tushundim.

Ayni paytda ko'pchilik, ayniqsa, yaqinlarim Moskvada malaka oshirish haqidagi qarorimni jiddiy qabul qilmadi. Men oilali edim, qo'limda kichkina farzandim bor, yana ikkinchisini ham kutayotgan edik. Turmush o'rtog'im ham safarda ko'p bo'lardi. Qat'iyatligim sabab farzandlarim bilan safarga chiqdim.

(Davomi 4 - sahifada)

USTOZLAR XIZMATI – BUYUK SHARAF

(Davomi. Boshi 3 - sahifada)

Albatta, bu ezgu ishlarda faqatgina bitta insonning sa'y-harakati emas, balki bir qancha fidoyi ustozlarimizning mehnati mujassam. Fakultet dekani o'rinbosari Lochin G'ayratovich, Arslon Nafasov, tyutorlar Bobur Xakimov va Sirojiddin Samadov kabi ustozlar ham Ravshan Aktamovichning tashabbuslarini chin dildan qo'llab-quvvatlab, tabiatsevarlik va bunyodkorlik yo'lida yelkadosh bo'ldilar. Fakultet hududining bugungi yashil mo'jizaga aylanishi o'z-o'zidan bo'lgani yo'q. Bu jarayon mashaqqatli, ammo bunyodkorlik ruhiga to'la sa'y-harakatlar bilan kechdi. Avvaliga butun hudud tartibga keltirilib, sug'orish tizimlari o'rnatildi, quruq tuproqqa hayot bag'ishlab mayin maysalar qad rostladi. Oradan ko'p o'tmay, turfa xil archa va manzarali daraxtlar ekilib, tashlandiq joyning qiyofasi butunlay o'zgardi. Endi bu

yerda qushlar chug'ur-chug'uri eshitilib, yashillik inson ruhiga orom bag'ishlaydi.

Shu paytda mamlakatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan "Yashil makon" umummilliy loyihasi ham keng quloch yoygan edi. Fakultet dekani Ravshan Aktamovich Ikramov bu ezgu tashabbusni ilk bor quvvatlab, "labbay" deb javob berdi va bog'ning turli-tuman daraxtlar bilan bezalishida jonbozlik ko'rsatdi.

San'atshunoslik fakultetining haykaltaroshlik yo'nalishi professor-o'qituvchilari va talabalari esa "Orzular parvozi" hamda "Humo qush" haykallarini barpo etdilar. Bu haykallar boqqa nafaqat ko'rk, balki ma'naviy ilhom, orzu va umid ramzini olib kirdi.

Gumanitar fanlar fakulteti rahbariyati ham ushbu xayrli tashabbusda faol ishtirok etib, mas'uliyatlilik, tabiatni asrash, jamoaviy ishlash borasida ko'pchilikka namuna

bo'ldilar.

Talabalik yillarimda guvoh bo'lgan ana shunday tabiatsevarlik va bunyodkorlik ishlari menga katta hayotiy saboq bo'ldi. Men rahbarlarning nafaqat siyosiy, balki insoniy fazilatlarini ham ko'rib, ulardan ibrat oldim. Bugun esa, ustozlarim bergan bilim va tarbiya samarasi o'laroq, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi

Ekologik fraksiyasi ijrochi kotibi sifatida faoliyat yuritir ekanman, mamlakatimizning "yashil iqtisodiyot"ga o'tish borasidagi siyosatini kichik mehnatlarim bilan qo'llab-quvvatlab kelayotganimdan faxrlanaman.

"O'qituvchi va murabbiylar kuni" – fidoyi ustozlarni ulug'lash, ularning mashaqqatli mehnatlari va ezgu xizmatlariga samimiy minnatdorchilik bildirish uchun eng go'zal



fursatdir. Shu bois, bugun biz – Gumanitar fanlar fakulteti talabalari nomidan yuqorida ismlari zikr etilgan fidoyi ustozlarimizni chin qalbimizdan tabriklaymiz.

Zero, yaxshilardan bog' qoladi, jonkuyar ustozlardan esa avlodlar uchun nurli yo'l qoladi.

Abrorjon ISMATOV,
Universitet sobiq talabasi

Har qanday ta'lim maskanining yuragi – kutubxona. Kitoblar saqlanadigan joy emas, balki bilim, ma'naviyat va tafakkur manbai bo'lgan bu maskanlarda fidoyilik bilan ishlaydigan insonlar bor. Ular nafaqat kitoblarni tartibga soladi, balki yoshlarda ilmga muhabbat uyg'otadi, ularning ma'naviy olamini boyitadi. Ana shunday mehribon, kasbiga sodiq insonlardan biri – universitetimiz kutubxonasida faoliyat yuritayotgan Gulshoda opa Eshniyozovadir.

Kutubxonachilik – qadimiy va shu bilan birga eng zarur, foydali kasblardan biridir. Ilk kutubxonachilar faqat erkaklar bo'lgan va ulardan yuksak bilim talab etilgan. Masalan, Amir Temur davridagi kutubxonada ishlash uchun nafaqat ilmi bo'lish, balki bir nechta xorijiy tillarni bilish ham shart edi. Kitobsevar xalq orasida kutubxonachi kasbi har doim obro'li va



TALABALARNI QADRLAB, O'ZI HAM QADR TOPGAN INSON HAQIDA SO'Z

e'tiborli hisoblangan.

Bugungi kunda internet va zamonaviy axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi tufayli ma'lumot olish jarayoni ancha osonlashdi. Shu boisdan bu kasbning nufuzi biroz pasaygandek tuyulsa-da, baribir, kutubxonachilik o'z qadri yo'qotgani yo'q. Chunki bu maskanlarda eng jonkuyar, mehribon insonlar ishlaydi va aynan shu yerda «jonli» mutolaa jarayoni kechadi.

Universitetimizdagi hamkasbimiz va ustozimiz Gulshoda opa Eshniyozova ana shunday fidoyi, mehdaryo insonlardan biri.

Gulshoda opa nafaqat talabalar, balki professor-o'qituvchilarga ham o'zining samimiyligi va e'tibori bilan ilqlik bag'ishlaydi. U kitobxon talabalarning dunyoqarashini chuqur anglaydi, ular bilan suhbatlashadi va ularning olami bilan yashaydi.

Bir qarashda kutubxonachilik kasbi osondek ko'rinsa-da, aslida u katta bilim, keng dunyoqarash va mas'uliyatni talab etadi. Gulshoda opa zamonaviy kutubxonachining

chinakam timsolidir. U nafaqat kitoblar bilan ishlashda, balki boshqa ko'plab sohalarida ham bilimli va tajribali. Ustozimiz uchun imkonsiz ishning o'zi yo'q – bu esa bizni har doim hayratga soladi.

Kutubxonachilik faoliyati to'xtovsiz rivojlanib borayotgan hozirgi davrda, hatto sun'iy intellekt va robotlashtirish jarayonlari ham u kishini cho'chitmaydi. Aksincha, zamonaviy texnologiyalarni puxta o'zlashtirib, biz yoshlar bilan teng ishlaydi va har jihatdan o'rnak bo'lib kelmoqda.

Ustozimiz biz – yosh hamkasblariga doimo foydali maslahatlar beradi, yo'l-yo'riq ko'rsatadi. Adabiyot va nashriyot sohalarida chuqur bilimga ega bo'lish, fikrni aniq va ishonchli tarzda ifoda etish, zamonaviy axborot texnologiyalarini mukammal tushunish zarurligini ta'kidlab keladi.

Sizdek fidoyi hamkasbimiz borligidan faxrlanamiz, Gulshoda opa!

Surayyo MAMATOVA, ARM xodimi

UBAYDA FAYZIYEVA:

«BOLALAR DUNYODAGI ENG YAXSHI NE'MATLARGA MUNOSIB...»



(Davomi. Boshi 3 - sahifada)

– Siz zaif eshituvchi bolalar uchun birinchi darslik – «Alifbe» darsligini tayyorlagan ekansiz...

– Ha, to'g'ri. Eshitishda nuqsoni bor bolalar uchun «Alifbe» ham nashr etdim. O'tgan asrning 90-yillarida men eshitmaydigan va zaif eshituvchi bolalar maktablari uchun 14 ta darslik tayyorladim va o'qituvchilari uchun 6 ta metodik qo'llanma yozdim. Men darsliklar va qo'llanmalarni tasodifan tayyorlamaganman, albatta. Ularda mening butun pedagogik faoliyatim, tajribalarim aks etgan bo'lib, bu bolalarni ta'lim va tarbiyalash jarayonida yuzaga keladigan savollarga javoblar ham bor.

– Inklyuziv ta'lim haqida gapirib bersangiz.

– Zaif eshituvchi bolalarni maktabga tayyorlash jarayonida bir qizcha o'zining she'ri o'qib bergandi. U she'rida maktab haqida, yaqin do'stlari, orzulari haqida gapirdi...

Men eshitib, ta'sirlandim. Bu qizning orzularida biron bir amalga oshmaydigan narsa yo'qligini angladim. Har qanday bola ham o'qishni, o'rganishni yaxshi ko'radi. Ta'lim olishni, barcha bilan teng imkoniyatlarga ega bo'lishni xohlaydi. Men bu bolalarning barcha orzulari va umidlari amalga oshishini istab yashayapman.

Diilshod RAHMATOV,
Universitet Matbuot kotibi

TYUTORMI YOKI YO'LBOSHCHI?

Talabalar bilan ishlash, ular uchun bilim olamiga yo'lboshchi bo'lish, bir vaqtning o'zida ham tarbiyaviy namuna, ham tashabbuskor bo'lish hamma o'qituvchilar qo'lidan kelaveradigan ish emas. Har doim Ra'no Karimovna Kirgizbayeva bilan suhbatlashganimda avstriyalik pedagog Artur Shnabelning "O'qituvchining vazifasi eshikni ochish, talabani majburlab kiritish emas", degan so'zlari yodimga tushadi.



Minnatdorchilik maktubi

Har bir talaba uchun universitet hayoti tyutori bilan tanishuvdan boshlanadi. Bu uchrashuv va suhbat aksariyat hollarda talabaning keyingi ta'limga bo'lgan munosabatini belgilab beradi. Ra'no – betakror tarbiyachi va ajoyib ruhshunos ekanligiga ko'p bora amin bo'lganman.

Ra'no opaning tashabbuskorligi va izlanuvchanligi guruhimizning ahilligi, quvnoqligi va talabalik yillarimizning vektorini belgiladi.

Talabalik hayoti – bu o'rganish, izlanish, kashfiyot va o'z ustida ishlash davridir. Bu jarayonning poydevori qanchalik mustahkam qo'yilsa, keyingi yo'l ham shunchalik ravon kechadi. Shu ma'noda universitet ostonasida bizni kutgan, ilk qadamlarimizga yo'l ko'rsatgan va quvvat bergan inson – Ra'no Karimovna ekanligi biz uchun katta baxt. Uning samimiy salomi, samimiy tabassumi va mehr bilan yo'l ko'rsatishi bizga yangi kuch va ishtiyoq bag'ishladi.

Achinarlisi, universitetlarda tyutor lavozimining mavqei hali yetarlicha yuksak emas, moddiy jihatdan qiymatlanishi esa undan ham pastroq. Biroq mas'uliyat, talab va mehnat miqdori nihoyatda katta. Shunday bo'lsa-da, Ra'no Karimovna hech qachon orqaga chekinmaydi, doim faol, tashabbuskor va jonkuyar.

Ra'no opa, talabalik yillarimizni nurli va mazmunli etganingiz uchun, qiyin damlarda ruhiy tayanch bo'lganingiz uchun, bilim yo'lida bizni qo'llab-quvvatlaganingiz uchun yurakdan minnatdorman.

Rahmat Sizga, ustoz, talabalikni haqiqiy oltin davrga aylantirganingiz uchun!

Shahlo JUMAMURATOVA, Universitet bitiruvchisi

USTOZIM

**Mehringiz cheki yo'q sarishtadirsiz,
Misoli guldursiz, farishtadirsiz.
Bugun aytay dedim dildagi so'zim,
Cheksiz hurmatim bor sizga, ustozim!**

**Hayot yollaringiz ziyo boldingiz,
G'amlar kelsa siz ham birga kuydingiz.
Bardoshim, panohim bolib turdingiz,
Cheksiz hurmatim bor sizga, ustozim!**

**Siz borsizki, yurar yolim shavkat-shon,
G'ururim egilmas, bu boshim omon.
Maqsadlarim tomon boraman har on,
Cheksiz hurmatim bor sizga, ustozim!**

**Meni boshladingiz olg'a yurishga,
Yurakka Vatanning mehrin solishga.
Men va'da beraman qalbingizdagi,
Ishonchni bir umr oqlab qolishiga!
Oygu TO'YCHIYEVA,
O'TA 24/4-guruh**

**Ushbu qo'shsahifa Chirchiq davlat
pedagogika universitetining
Axborot xizmati
tomonidan tayyorlandi.**